

**O'ZBEKISTON VETERINARIYA FARMATSEVTIKASIDA QO'LLANILAYOTGAN
INSEKTITSIDLAR VA AKARITSIDLARNI ISHLAB CHIQARUVCHI DAVLATLAR
TAHLILI**

Madadjon Safarov

SamDVMChBU Toshkent filiali o'qituvchisi

Fazliddin Jalilov

prof. DSc., Toshkent farmasevtika instituti

Nurali Abbosov

SamDVMChBU Toshkent filiali o'qituvchisi

Saffullayeva Mahbuba

SamDVMChBU Toshkent filiali o'qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida mavjud insektitsidlар va akaritsidlар bozoriga kirib kelish dinamikasining ishlab chiqaruvchi davlatlar orasidagi taqsimoti, asosiy ta'sir etuvchi muddasi, ishlab chiqarilish shakli kabi ko'rsatkichlari orqali kontent tahlili natijalari keltirilgan.

Kirish. Veterinariya, qishloq xo'jaligi va sanoatning rivojlanishi, o'simliklar, hayvonlar va sanoat binolarini zararkunanda organizmlardan himoya qilish, hayvonlarda hashoratlar va kanalar keltirib chiqaradigan kasalliklarni oldini olish davolash, uchun maxsus vositalar insektitsidlар va akaritsidlarni tayyorlash hamda ishlab chiqarishni qat'iy talab etadi [1].

Ishning maqsadi. O'zbekiston Respublikasi veterinariya farmatsevtikasi bozorining ma'lum bir qismini tashkil etgan insektitsidlар va akaritsidlар guruhiba mansub kimyoviy va biologik himoya vositalarining toksikologik ahamiyatini inobatga olgan holda ushbu preparatlarning O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida tutgan o'rni tahlilini o'tkazish.

Material va metodlar. O'zbekiston Respublikasi veterinariya sohasida, qishloq xo'jaligida qon so'ruvchi hashoratlar va kanalar, o'simlik zararkunandalari, kasalliklariga va begona o'tlarga qarshi foydalanish uchun ruxsat etilgan kimyoviy va biologik himoya vositalari ro'yxatida qishloq xo'jaligida ishlatish uchun tavsiya etilgan hayvonlarni, o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy va biologik vositalari yaxlit ro'yxatini, ulardan samarali va bezarar foydalanishning asosiy mezon va me'yorlarini joriy etadi. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi, Veterinariya dori vositalari, ozuqabop qo'shimchalar sifati va muomalasi nazorati bo'yicha davlat ilmiy markazi saytida keltirilgan reestri ma'lumotlari asosida O'zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida ishlatiladigan insektitsidlар va akaritsidlarning kontent tahlili amalga oshirildi[5].

Natijalar va ularning tahlili. Bunda 2022-yildagi ro'yxat ma'lumotlariga asosan O'zbekiston hududida umumiy 59 nomdagi veterinariya amaliyotida qo'llash uchun tavsiya qilingan insektitsid va akaritsid dori vositalari ro'yxatdan o'tganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu kimyoviy vositalarining assortimentidagi 59 ta preparatdan 39 tasi (66 %) xorijiy ishlab

chiqaruvchilar va 15 tasi (25 %) MDH davlatlari ishlab chiqarishini, 5 tasi (9 %) mahalliy ishlab chiqaruvchilar ulushiga to‘g‘ri kelishi aniqlandi. Ushbu vositalarni davlatlar kesimida tahlil qilinganda eng ko‘p Xitoy (29%), keyingi o‘rinlarda Hindiston (22%), Ukraina (13,5%), boshqa davlatlarida ishlab chiqarilgan vositalar tashkil qildi.

Xulosa: Natijalardan ko‘rinib turibdiki O‘zbekiston veterinariya farmatsevtikasi bozorida ishlatiladigan insektitsidlar va akaritsidlarni Xitoy va Hindistonda eng ko‘p ishlab chiqarilgan preparatlar tashkil etishi kontent tahlilda aniqlandi.

ADABIYOTLAR

1. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. “Veterinariya farmakologiyasi” fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua, Toshkent-2022
2. М.Б. Сафаров; Ф.С. Жалилов; Н.Н. Аббосов; Р.Қ. Нормаматов. Ўзбекистон кишилоқ хўжалигида ишлатиладиган инсектицидлар ва акарицидлар ва уларининг қўлланилиш шакллари. Yosh Tadqiqotchi Jurnali. 2, 3 (May 2023), 36–41.
3. Yu. Salimov, F.S. Jalilov, K.B. Hamzayev, M.B. Safarov. “Veterinariya farmakologiyasi va toksikologiyasi” fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua, Toshkent-2022
4. M. B. Safarov, N. N. Abbosov, G. A. Mengliyev, K. B. Hamzaev, M. E. G‘oyipova F. S. Jalilov, L. T. Pulatova. O‘zbekiston bozorida o‘simliklar himoyasi uchun ishlatiladigan insektidsidlar va akaritsidlarning assortiment Tahlili. //International journal of agrobiotechnology and veterinary medicine journali 2022/12/26 Tom 2 B. 26-31.
5. <http://gnkc.uz/>